

Oriental Journal of Education



PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING STUDENTS' ECOLOGICAL CULTURE IN SPORTS TOURISM ACTIVITIES

Marufkhuja Akhmatkhonovich Azizov

Acting Associate Professor of the

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Tashkent Branch of the University of Business and Science

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: sports tourism, ecological culture, ecological education, pedagogical foundations, students, ecological consciousness, sustainable development, ecological values, interactive methods, experimental education, ecological responsibility, careful attitude to nature, educational process, personal development, ecological competence.

Received: 02.11.25

Accepted: 03.11.25

Published: 04.11.25

Abstract: This article analyzes the pedagogical possibilities of sports tourism events in the formation and improvement of ecological culture among students. The author substantiates that the direct connection of sports activity with nature is an important factor in the development of ecological consciousness, a careful attitude to nature, and a sense of responsibility in students. The article highlights the pedagogical conditions for students to understand ecological values through sports tourism classes, to demonstrate ecological culture in the process of practical activity, and to instill the ideas of sustainable development.

At the same time, the leading role of the teacher in environmental education and the effectiveness of using interactive and experimental methods are shown. The research results show that sports tourism has scientific and practical significance in educating students as environmentally conscious, responsible, and active citizens.

SPORT TURIZMI TADBIRLARIDA O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ma'rufxo'ja Axmatxonovich Azizov

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

dotsenti v.b.,

University of Business and Science Tashkent filiali

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: sport turizmi, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, pedagogik asoslar, oʻquvchilar, ekologik ong, barqaror rivojlanish, ekologik qadriyatlar, interfaol metodlar, tajribaviy taʼlim, ekologik masʼuliyat, tabiatga ehtiyotkorona munosabat, taʼlim jarayoni, shaxsiy rivojlanish, ekologik kompetensiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada sport turizmi tadbirlarining oʻquvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish va takomillashtirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muallif sport faoliyatining tabiat bilan bevosita aloqadorligi oʻquvchilarda ekologik ong, tabiatga ehtiyotkorona munosabat va masʼuliyat hissini rivojlantirishda muhim omil ekanini asoslaydi. Maqolada sport turizmi mashgʻulotlari orqali oʻquvchilarda ekologik qadriyatlarni anglash, ekologik madaniyatni amaliy faoliyat jarayonida namoyon etish va barqaror rivojlanish gʻoyalari singdirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritiladi.

Shu bilan birga, oʻqituvchining ekologik tarbiyadagi yetakchilik roli, interfaol va tajribaviy metodlardan foydalanishning samaradorligi koʻrsatib oʻtiladi. Tadqiqot natijalari sport turizmi orqali oʻquvchilarni ekologik jihatdan ongli, masʼuliyatli va faol fuqarolar sifatida tarbiyalashda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini koʻrsatadi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ НА МЕРОПРИЯТИЯХ СПОРТИВНОГО ТУРИЗМА

Маъруфходжа Ахматхоновича Азизов

Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

и.о. доцента Ташкентского филиала

University of Business and Science

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: спортивный туризм, экологическая культура, экологическое воспитание, педагогические основы, учащиеся, экологическое сознание, устойчивое развитие, экологические ценности, интерактивные методы, экспериментальное обучение, экологическая ответственность, бережное отношение к природе, образовательный процесс, личностное развитие, экологическая компетентность.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические возможности мероприятий спортивного туризма в формировании и совершенствовании экологической культуры у учащихся. Автор обосновывает, что непосредственная связь спортивной деятельности с природой является важным фактором развития у учащихся экологического сознания, бережного отношения к природе и чувства ответственности. В статье освещаются педагогические условия осознания учащимися экологических ценностей посредством занятий спортивным туризмом, проявления экологической культуры в процессе практической деятельности и привития идей устойчивого развития.

Вместе с тем, показана ведущая роль учителя в экологическом воспитании,

эффективность использования интерактивных и экспериментальных методов. Результаты исследования показывают, что спортивный туризм имеет научно-практическое значение в воспитании учащихся как экологически сознательных, ответственных и активных граждан.

Kirish. Bugungi kunda ekologik muammolarning keskinlashuvi insoniyatdan atrof-muhitga nisbatan ongli, mas'uliyatli munosabatni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, yosh avlodga ekologik madaniyatni shakllantirish ta'lim tizimining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Ayniqsa, sport turizmi tadbirlari bu jarayonda samarali pedagogik vosita sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki sport turizmi faoliyati o'quvchilarni tabiat qo'yniga olib chiqish, u bilan bevosita muloqotga kirishish va amaliy tajriba orqali ekologik qadriyatlarni anglash imkonini beradi.

Sport turizmi tadbirlarining o'quvchilarda ekologik madaniyatni takomillashtirishdagi pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Unda sport va turizm integratsiyasi asosida ekologik tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari, shuningdek, o'qituvchining yetakchilik roli yoritiladi. Sport turizmi orqali o'quvchilarni tabiatni asrash, ekologik muvozanatni saqlash, chiqindisiz dam olish madaniyatini shakllantirishga o'rgatish imkoniyatlari tahlil etiladi.

Shuningdek, o'quvchilarda ekologik ong va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar hamda tajribaviy o'qitish texnologiyalarining afzalliklari asoslab beriladi. Natijada, sport turizmi tadbirlari ekologik madaniyatni rivojlantirish bilan bir qatorda, o'quvchilarda jismoniy chiniqish, jamoaviylik, mas'uliyat va vatanparvarlik kabi ijobiy fazilatlarni ham tarbiyalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlil. Sport turizmi va ekologik madaniyatni shakllantirishga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning ko'p qirrali va kompleks xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Pedagogik manbalarda (A. Karimov, 2018; N. Xolmatova, 2020) ekologik tarbiyaning o'quvchilar ongida tabiatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishdagi o'zni alohida ta'kidlanadi. Mualliflar fikricha, ekologik madaniyat — bu faqat bilim emas, balki shaxsning axloqiy pozitsiyasi, amaliy faoliyati va tabiat bilan uyg'un yashash tamoyiliga asoslangan hayotiy qarashdir.

Sport turizmi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar (E. Safarov, 2019; L. Rahmonova, 2021) esa jismoniy tarbiya bilan ekologik ta'limning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ayniqsa, sport sayohatlari va tabiiy muhitda tashkil etiladigan o'quv-dala mashg'ulotlari o'quvchilarda ekologik qadriyatlarni amaliy faoliyat orqali o'zlashtirish imkonini yaratadi. UNESCO va BMTning barqaror rivojlanish

maqsadlari (SDGs, 2030) ham yoshlar orasida ekologik madaniyatni oshirishda sport va turizmning integratsion rolini e'tirof etadi.

Xorijiy tadqiqotchilar (D. Kolb, 1984; J. Dewey, 2005) tajribaviy o'qitish nazariyasi asosida ekologik tarbiyada amaliy faoliyat, tajriba va refleksiyaning muhimligini asoslaydi. Shu nuqtai nazardan, sport turizmi tadbirlarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish ekologik madaniyatni rivojlantirishning samarali pedagogik yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmogda.

Tahlil va natijalar. Uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash muammosi eng muxim vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyatda shaxs kamoloti albatta ta'lim-tarbiya natijasida yuzaga keladi. Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, kamolot tushunchasi insondagi aqliy, axloqiy, estetik, ekologik, jismoniy tarbiya yo'nalishlarini o'z ichiga kamrab olgan, ya'ni oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga, nomukammallikdan mukammallikka tomon bo'lgan o'zgarishlar tushuniladi.[5]

O'quvchilarning vatanparvarlik ruhida jismoniy va aqliy jihatdan sog'lom bo'lib voyaga etishlarida darsdan tashqari vaqtlarda sport turizmlarini tashkil etish katta ahamiyatga ega.

Pedagogikada sport turizmini ikki katta guruhga bo'lish juda keng tarqalgan: ijodiy turizm va qoidali turizm.[4]

Shaxs rivojlanishining asosiy omillari ichida rivojlanib boradigan, yoshga qarab o'zgarib turadigan, yangi sifat xususiyatlariga ega bo'lgan va shaxsiy o'sishda muhim rol o'ynaydigan ijodiy turizm faoliyati alohida kasb etadi. Shaxsning shakllanishi uchun ijtimoiy tizimlarning, jumladan, turizmning ta'siri masalalari muhim ahamiyatga ega. Bunday sharoitda ijodiy turizm rejasini o'quvchilarning o'zlari tuzadilar va ularda o'z ta'surotlarini atrof-muhit haqidagi tushunchalarini hamda unga munosabatlarini aks ettiradilar.

Qoidali turizmlarda qoidalar yaratiladi va o'quvchi ushbu qoidalar asosida harakatlanadi. Turizm mazmuni qoidalarning murakkabligiga qarab, ular turli yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan bo'ladi. Tayyor qoidali turizmlarning katta guruhini oddiy turizmlar tashkil etadi, ularning ko'plari avloddan-avlodga o'tib bizgacha etib kelgan. Fenologik kuzatish, geologik qidiruv, atrof-muhitni, hayvonot va o'simliklar dunyosini, tabiatni, gul sayli hamda turlarini o'rganish shular jumlasidandir.

O'z navbatida turizmlarning har ikkala guruhi ham o'zining xilma-xil ko'rinishlariga ega. Ijodiy turizmlar guruhi mazmunini o'yinlar tashkil etadi. Bu turizmlarda o'quvchilar atrof-muhit haqidagi o'z taassurotlarini o'ziga xos tarzda aks ettiradilar. Fikrimizcha, jismoniy tarbiya darslarida o'yinlar o'z mazmuni va qoidalari, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishiga ko'ra shartli ravishda didaktik o'yinlar (zuv-zuv, chillak o'yini, ko'pkari, nishonga olish, kaklik ovi,)ga bo'linadi. Sport turizmi tadbirlarida bolalarning jismoniy va aqliy faoliyati rivojlanadi, ular bilimlari chuqurlashadi va kengayadi; turizmlar ("Kun va tun", "Qurbaqa bilan laylak", "Mushuk", "Nina, ip va tuguncha",

“Kuzatuvchilar”, “Insiz quyon” va boshqalar)da bolalarning turli harakatlari takomillashadi estetik, aqliy qobiliyatlari rivojlanadi.[2]

Har bir turizmlarning o‘ziga xos sifatlari mavjud, biroq ular qator umumiy xususiyatlarga ega.

Turizmlar o‘quvchilar uchun qiziqarli mashg‘ulot turidir. Shunday ekan, barcha faoliyatda bo‘lgani kabi unga ham qator xislatlar: maqsad va mazmunning uzviyligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlar, natijasining mavjudligi kabilar xosdir.

Har qanday ko‘rinishdagi turizmlar tushunib olingan va maqsadga qaratilgan faoliyat tarzida kechadi. Har bir harakatda bola uchun ahamiyatli bo‘lgan maqsad mavjud: quvlashmashoq o‘ynayotganda o‘yin qatnashchisiga qo‘l tekkizish, “qopqondan” qutilish, bunda yerga aylana chiziladi o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadilar birinchi guruh aylana bo‘lib aylanib turishadi ikkinchi guruh esa aylanani ichiga kirishadi boshqaruvchini buyrug‘i bilan aylana ichidagi guruh aylana tashqarisiga qochib chiqishga harakat qilishadi birinchi guruh esa ikkinchi guruhni aylana tashqarisiga chiqib ketmasligi uchun ushlab qolishga harakat qilishadi o‘yin jarayonida atrof-muhitga salbiy ta‘sir etmaslik kerak (ovozi bilan adalatlash, o‘simliklarni payhon qilmaslik, atrofga chiqindilar tashlamaslik).

Sport turizmlari jarayoniga bolaning butun shaxsiyati: uning psixikasi, bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti va ta‘sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi, bunda bola faol harakat qiladi. Ehtiyot, ziyrak va kuzatuvchan bo‘ladi. O‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llaydi. Haqiqatdan ham turizmlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ular orasida sabablarning o‘ziga xosligi asosiy hisoblanadi.

Turizm ma‘lum bir yo‘nalishda o‘tkaziladigan, qat‘iylik talab etadigan sport yo‘nalishi.

Turizm – bu bolalarning shaxsiy tashabbusiga ko‘ra vujudga keladigan, o‘zining faol ijodiy yo‘sindagi, yuksak ta‘sirchanlik ruhi bilan ajralib turadigan erkin va mustaqil faoliyat bo‘lib, kuch-quvvat, g‘ayrat, ziyraklikni talab etadi. Eng muhimi bolada ishonch bo‘lishi kerak. Bolalarning yurish va sayohat jarayonidagi erkinligi va mustaqilligiga alohida ahamiyat qaratilishi lozim.

O‘quvchi sport turizmi jarayonlari ehtiyojlarga qaram bo‘lmaydi: u o‘zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bola sayohatdan zavq olish maqsadida “voqelikning uning uchun ahamiyatli bo‘lgan tomonlarini boshdan kechiradi, turizmning asosiy sababi, bolani atrof-muhitga bo‘lgan munosabati. Demak, sayohat faoliyatining erkin tabiati garchi unda mehnat bilan ko‘pgina o‘xshashliklar bo‘lsada, jamiyat hayotida tutgan alohida o‘rni bilan belgilanadi.

Sport turizmi ijtimoiy maqsadlarga bevosita daxldor bo‘lmaydi, biroq ularga bilvosita munosabatda bo‘ladi: sayohat kishini asqotadigan jismoniy ruhiy bardoshga o‘rgatadi. Shunday ekan, sayohatlarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni tufayli kattalarning sayohatga, mehnatga, bolalar ta‘limiga bo‘lgan munosabati ham turlicha bo‘ladi. Sport turizmi bolalar talimi uchun hayotiy zarur narsa, chunki ular bevosita yosh avlodning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishlariga yo‘naltirilgandir. Shuning uchun ta‘lim va mehnat mazmuni, uni tashkil etish usullari, natijalari kattalar tomonidan

har tomonlama belgilanib va nazorat qilib turiladi. Shu bois sport turizmi qat'iy qoidaga amal qilmaydi u bolalarning tabiat, atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan mustaqil faoliyatidir. Biroq, uning bolaga ko'rsatadigan ulkan ta'sirini hisobga olgan holda kattalar bolalar sport turizmiga rahbarlik qiladilar, sport turizmining vujudga kelishi va rivojlanishiga sharoit yaratadilar. Kattalar, sport turizmi jarayonida uchraydigan barcha hodisalarni oldindan bilishi zarur.

7-sinf o'quvchisining sport turizmidagi erkinligi va mustaqilligi quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi: a) turizm yoki uning mazmunini tanlashda; b) boshqa bolalar bilan ixtiyoriy birlashishda; v) sayohatga kirish va chiqishning ixtiyoriyligida: Turli ko'rinishdagi sport turizmida 7-sinf o'quvchisining erkinligi va mustaqilligi turlicha nomoyon bo'ladi. Biroq turizm uchun "sub'ektiv jihatdan mutlaq haqiqat" va hech qanday tashqi zarurat bilan kelisha olmaydi.

O'quvchilarning sport turizmiga ishtiyoqi, turizmning bolaga ulkan ta'siri bilan bog'liqdir: "O'quvchilar uchun turizm voqelik bo'lganda ham uni o'rab turgan narsalardan ko'ra juda qiziqarli voqelikdir. U o'quvchi uchun tushunarli bo'lgani tufayli ham qiziqarlidir; turizm bolaga shuning uchun ham tushunarli, u bolaning o'zi yaratgan mashg'ulotdir. Haqiqiy hayotda bola bolaligicha qoladi, u hech qanaqa mustaqillikka ega bo'lmagan norasida. Hayot oqimida ko'r-ko'rona va betashvish suzayotgan bola, turizm jarayonida esa bola boshqacha odam, u endi kamol topayotgan, o'z kuchini sinab ko'ra oladigan va o'zi yaratgan narsani mustaqil idora eta oladigan inson. Turizm bola hayotidagi ijtimoiy voqelik. "Bolani turizmga majburan chorlamaslik lozim. Majburan turizmga chiqib bo'lmaydi.

Turizm uchun sayohatchilarning o'z harakatlari, va fel-atvorlarini o'zlari boshqara olishlari xosdir. Turizmga chiqadigan bolalar muayyan talab va qoidalar bilan boshqarilib turiladi.

Turli ko'rinishdagi turizm qoidalar ham turlicha bo'ladi. Bunga misol tariqasida "Qopqon", "Ayiqlik bog'ida", "Bo'ri zovur ichida", "Chumchuqlar", "Oq ayiqlar ovi" kabilarni keltirish mumkin. O'quvchilarning u yoki bu vaziyatdagi harakati mantiqqa muvofiq tarzda vujudga keladi.

Turizm qoidalari harakatlarning tabiati va izchilligi, sayohatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilaydi.

Qoidalarning xilma-xil bo'lishiga qaramay sayohatchilar barcha hollarda ularni turizm manfaatlariga bo'ysungan holda ularni ixtiyoriy, ongli tarzda bajaradilar, chunki qoidalarning buzilishi turizmni fojeali tugashiga olib keladi. O'quvchilar turizm kundalik hayotdagi talablarni bajarishga qaraganda turizm qoidalarini bajarishga birmuncha toqat, diqqat, barqarorlik, chidamlilik ko'rsatadilar. Demak, turizmlar orqali o'quvchida qator ijobiy fazilatlar shakllanadiki, talablar asosida barkamol insonni kamol toptirish g'oyasiga hamohang ravishda kechadi. Shu bilan bir qatorda maxsus usul va texnika asosida o'quvchilarning sog'liqlarini, har bir individual shaxs kamoloti saviyasini tadqiq etish: belgilangan me'yor va undan uzoqlashish ko'rsatkichlarini oldindan belgilash negizida tarbiya uchun doimiy ko'rsatkich aniqlanadi, etuklik-garmoniya,

goʻzallik shakli, sifatlarning yuqori darajadagi kamolotiga erishiladi. Sport turizmlari jarayonida 7-sinf oʻquvchilarining umumiy madaniyat darajasi shakllanib, ekologik tarbiyaning tarkibiy qismini amalga oshirishga imkoniyat yaratiladi. Chunki ekologik madaniyat inson va jamiyat umumiy madaniyatining ham ajralmas qismi sifatida qaralar ekan, u sport ishlari yoki oddiy shoʻbalar, klublar, guruhlar yoki ommaviy sayohatlar, ekomarafonlarda namoyon boʻladi.

Xulosa qilib aytganda birinchidan, sport turizmi tadbirlari oʻquvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. U tabiat bilan bevosita muloqot orqali ekologik ongni rivojlantiradi, oʻquvchilarda tabiatni asrash, ekologik xavfsizlikni taʼminlash va barqaror hayot tarziga intilish motivatsiyasini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, ekologik madaniyatni takomillashtirishda oʻqituvchining yetakchilik roli muhim ahamiyat kasb etadi. U sport turizmi mashgʻulotlarini metodik jihatdan toʻgʻri tashkil etish, oʻquvchilarda ekologik qadriyatlarni shakllantirish va ularni amaliy faoliyatda namoyon etish jarayoniga yoʻnaltiruvchi shaxs sifatida namoyon boʻladi.

Uchinchidan, sport turizmi faoliyatida interfaol va tajribaviy oʻqitish metodlarini qoʻllash ekologik taʼlim samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv oʻquvchilarning faolligini, masʼuliyatini va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, ekologik ongni amaliy koʻnikmalar bilan uygʻunlashtirish imkonini yaratadi.

Toʻrtinchidan, sport turizmi jarayonida ekologik tarbiya nafaqat tabiatni asrashga, balki jamoaviylik, hamkorlik, ijtimoiy faollik va vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Bu esa ekologik madaniyatni ijtimoiy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bogʻliq holda shakllantirish imkonini beradi.

Beshinchidan, oʻquvchilar ishtirokidagi sport turizmi tadbirlarini taʼlim jarayoniga integratsiya qilish ekologik taʼlimning innovatsion yoʻnalishidir. Bu yoʻl bilan oʻquvchilarda ekologik kompetensiya, barqaror rivojlanish gʻoyalari va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish madaniyati mustahkamlanadi.

Sport turizmi tadbirlarida oʻquvchilarda ekologik madaniyatni takomillashtirishning pedagogik asoslarini tadqiq qilishda quyidagi amaliy takliflarni ilgari suramiz:

1. Ekologik yoʻnalishdagi sport turizmi dasturlarini joriy etish. Taʼlim muassasalarida sport turizmi mashgʻulotlarini ekologik mazmunda tashkil etish zarur. Har bir sayohat yoki yurish tadbirida oʻquvchilarga tabiatni asrash, chiqindilarni toʻgʻri yigʻish va ekologik xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni oʻrgatuvchi dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

2. Oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanmalar tayyorlash. Sport turizmi orqali ekologik madaniyatni shakllantirishga bagʻishlangan metodik qoʻllanmalar yaratish oʻqituvchilar uchun amaliy yordam beradi. Ularda ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalari, darsdan tashqari

mashg'ulotlar, o'yin va musobaqalar orqali tarbiyaviy ta'sir usullari bayon etilishi maqsadga muvofiq.

3. Ekologik loyihalar va tanlovlarni tashkil etish. O'quvchilarni ekologik mas'uliyatga undash maqsadida "Toza tabiat – mening javobgarligim" kabi sport-turistik aksiyalar, foto va video tanlovlar, ekologik marafonlar o'tkazish samarali natija beradi. Bu tadbirlar ekologik ongini mustahkamlash bilan birga, jamoaviy faoliyatni ham rivojlantiradi.

4. Ekoturizm infratuzilmasini ta'lim jarayoniga moslashtirish. Sport turizmi tadbirlarini o'tkazishda ekologik xavfsiz joylar, maxsus marshrutlar, tabiatni muhofaza qilish maskanlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish kerak. Bu o'quvchilarning amaliy tajribasini kengaytiradi va ekologik madaniyatni real muhitda shakllantiradi.

5. Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Sport turizmi mashg'ulotlarini raqamli ta'lim texnologiyalari, masofaviy o'rganish platformalari va interaktiv ekologik o'yinlar bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarda ekologik ongini zamonaviy shaklda rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu orqali ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni yanada samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasi. // «Xalq ta'limi». 1999, 5-son. 55-70 b.
2. Turdiqulov E.O. "Markaziy Osiyoda ekologik ta'lim taraqqiyoti". – Toshkent.: "Fan", 2005.
3. Rahimqulov K. Milliy harakatli o'yinlar. O'quv qo'llanma. T. – 2007 y.
4. Azizov M.A. Pedagogical conditions for the formation of a culture of preserving nature of students during travel. European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA) Vol. 2 No. 5, May 2021.
5. Azizov M.A. Sport turizmi jarayonida ekologik madaniyatning ahamiyati. Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar: filologiya va pedagogika sohasidagi zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari. 84 b.
6. Azizov M.A. O'quvchilarga sport turizmi orqali ekoahloqiy tarbiya berish mazmuni. INTERNATIONALES DEUTSCHES AKADEMIKA AACHENER 2021. 26 b.
7. Azizov M.A. O'quvchilarga sport turizmi jarayonida tabiatni asrash madaniyatini shakllantirish. International conference Innovative research of the xxi century science and education. 14 b.